



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Ислombек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



ADABIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

To'ychiyeva Mahfuza Umargulovna

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Islomova Shalola Ismoil qizi

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Bugungi ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalari nazariy jihatdan yoritilgan. O'zbekistonning 7-sinf "Adabiyot" darsligidagi topshiriqlar hamda Turkiyaning Türkçe 7. Sınıf Ders Kitabı (Turk tili 7-sinf darsligi)dagi topshiriqlar qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Tahlillar natijasida darsliklarda berilgan topshiriqlarning adabiy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi baholangan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, eksplisit, implisit, kompetensiyaviy yondashuv, qiyosiy tahlil, darslik.

Abstract: The competencies of literary text analysis, considered one of the essential components of modern education, are theoretically examined. A comparative study was conducted based on the tasks presented in Uzbekistan's 7th-grade "Literature" textbook and Turkey's "Türkçe 7. Sınıf Ders Kitabı" (Turkish Language 7th-grade textbook). Based on the analysis results, the effectiveness of textbook tasks in developing literary competence was evaluated.

Key words: competence, explicit, implicit, competence-based approach, comparative analysis, textbook.

Аннотация: Теоретически рассмотрены компетенции анализа художественного произведения как одного из важных компонентов современного образования. Проведено сравнительное изучение заданий учебника "Литература" для 7-го класса Узбекистана и "Türkçe 7. Sınıf Ders Kitabı" (учебник турецкого языка для 7-го класса) Турции. По результатам анализа оценена эффективность заданий учебников в развитии литературной компетенции.

Ключевые слова: компетенция, эксплицитный, имплицитный, компетентностный подход, сравнительный анализ, учебник.

KIRISH

Bugungi XXI asr – globallashuv asri. Zamonaviy globallashuv sharoitida o'z o'rnini, qadriyatlarini va mavqeyini saqlab qolish uchun har bir jamiyat ta'lim tizimini isloh qilishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Shu bois O'zbekiston 2022-yildan buyon xalqaro PISA dasturida faol ishtirok etib kelmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra, o'qish savodxonligi bo'yicha O'zbekiston eng quyi o'rin – 80-o'rinni qayd etgan. Qardosh respublikalar orasida esa eng yuqori 36-o'rinni Turkiya egallagan. Bunda, albatta, maktab ta'limidagi darsliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlillar uchun aynan shu jihat asos sifatida olindi.

O'zbekistonda yangi Milliy o'quv dasturining joriy etilishi ta'lim mazmunini faqat bilim berishdan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, ya'ni kompetensiyaviy yondashuvga yo'naltirdi. Ushbu yondashuv adabiyot fanini o'qitishda badiiy asarning g'oyaviy mazmunini o'quvchilarga yetkazishda muhim vazifani bajaradi. Chunki aynan adabiyot darslari shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy kamoloti, ruhiy rivojlanishi va tuyg'ularining takomillashuviga xizmat qiladi ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon ilm-fanida adabiy kompetensiya muammosi J. Culler ^[2] va W. Izer ^[3] kabi olimlar tomonidan nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa, turk adabiy ta'lim tizimida ushbu tushunchaning amaliy tatbiqi C. Kavkar ^[4] kabi tadqiqotchilarning ishlarida keng yoritilgan. O'zbek metodika fanida esa badiiy tahlil kompetensiyalarini shakllantirish masalalari Q. Yo'ldoshev ^[5], Q. Husanboyeva ^[6] va B. To'xliyev ^[7] tomonidan milliy darsliklar hamda o'qitish metodikasi doirasida tadqiq etib kelinmoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida muayyan bir janrdagi asarlar misolida kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vositalar tizimi o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil metodidan foydalanildi. O'zbekiston va Turkiyaning 7-sinf adabiyot darsliklaridagi topshiriqlar tizimi o'zaro solishtirilib, ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiya (lotincha – “compete” – erishyapman, loyiqman, mos kelaman) u yoki bu sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvning adabiyot fanini o'qitishdagi ahamiyati faqatgina bilim olish emas, balki ularni amalda qo'llay olishga ham e'tibor qaratilishidir. Bu jihatdan adabiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ta'lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Q. Yo'ldoshev “Adabiyot o'qitish metodikasi” kitobida adabiy kompetensiyani o'zbek o'quvchilarining milliy adabiyot asarlarini idrok etish, tahlil qilish va milliy qadriyatlar asosida talqin etish qobiliyati sifatida ta'riflagan ^[8].

Adabiyot fanida o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar 2 ga bo'linadi:

- 1. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar:** tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, fikrni yozma bayon qilish. Tinglab tushunish ko'nikmasi asarning audio variantini tinglash va mazmunini tushunish, asosiy va asosiy bo'lmagan fikrlarni ilg'ay olish hamda unga munosabat bildirish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'ladi. Fikrni og'zaki bayon qilishda o'quvchi badiiy asardagi barcha unsurlarni tushungan holda uning xulosasi va qahramonlari haqida o'z munosabatini bildiradi.

Fikrni yozma bayon qilishda o'qilgan asarlar tahlili (shu jumladan qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi. Bunda turli lingvistik va ekspressiv vositalardan o'rinli foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

- 2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi.** Bunda o'quvchi asarning asosiy va ikkilamchi g'oyasini anglaydi, asar yaratilgan kontekstni tushunadi, ochiq aytilgan eksplisit va implisit tagma'nolarni ilg'ay oladi, syujetni tushunadi, obrazlarni tahlil qiladi, ularga o'zining shaxsiy munosabatini bildira oladi, boshqa asarlar bilan qiyosiy tahlil qila oladi hamda asarning boshqa talqinlarini, masalan, kino, teatr va tasviriy san'atdagi talqinlarini solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlay oladi ^[9].

So'nggi yillarda nashr qilinayotgan adabiyot darsliklarida ushbu kompetensiyaviy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Milliy o'quv dasturida ham bu o'z aksini topgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida chop etilayotgan adabiyot darsliklaridagi topshiriqlar tahlil qilinganda, yuqoridagi ko'nikmalarni shakllantirish uchun topshiriqlar berilganiga guvoh bo'lamiz.

Masalan, 7-sinf adabiyot darsligida O'lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasi berilgan ^[10]. Hikoya boshlanishidan oldin “Asarni o'qishga tayyorlanamiz” ruknida o'quvchini o'qishga tayyorlash maqsadida savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Siz ‘qarz’ so'zini qanday tushunasiz?
2. Nega ‘qarz’ va ‘qiyomat’ so'zlari birga qo'llanmoqda?
3. Bu so'zlar orasida qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin?

Bu asarning kirish qismida sarlavhaning tahliliga bag'ishlangan savol hisoblanadi. Savolga javob berish orqali hikoya haqida dastlabki tasavvur paydo bo'ladi.

Türkçe 7. Sınıf Ders Kitabı (Turk tili 7-sinf darsligi)da Rashod Nuri Gunteginning “Munisa” hikoyasi berilgan ^[11]. Hikoyadan oldin “Darsga tayyorgarlik” ruknida berilgan savollar orqali o'quvchiga murojaat qilinadi:

1. Boshlang'ich maktabdagi bir xotirangizni do'stlaringiz bilan o'rtoqlashing.
2. Rashod Nuri Gunteginning ‘Choliqushi’ romani mavzusi haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu savollarga javob berish orqali o'quvchida asar mavzusiga aloqador fikrlar uyg'onadi. Savollarga javob berish hikoya mazmunini to'g'ri tushunish uchun dastlabki bosqich bo'ladi.

Har ikkala darslikda ham asarni o'qishdan oldin savollarning mavjudligi o'quvchining asarni tushunish samaradorligini 10–20 foizga oshiradi va hikoyani o'qishdan oldin ruhiy jihatdan tayyorlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston darsligida hikoyaning turli o'rinlarida o'quvchiga murojaat qilinib, savollar berilgan. Metodist olim Q. Yo'ldoshev asar ichida savollarning berilishi o'quvchilarning diqqatini chalg'itishga olib kelishini ta'kidlaydi. Turkiya darsligida esa asarning turli o'rinlarida savollar orqali o'quvchiga murojaat qilingan holat kuzatilmadi (1-jadval).



1-jadval: Hikoyalardagi savol va topshiriqlar tahlili

Savol va topshiriqlarning berilishi	O'zbekiston	Turkiya
Matn boshlanishidan oldin	2	2
Matn davomida	11	–
Matn oxirida	6	6
Topshiriqlar	1	4
Loyiha	1	–
Mustaqil o'qish uchun asar tavsiya etish	1	–

Asar yakunida O'zbekiston darsligida "Muhokama qilamiz" ruknida o'quvchiga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Sizningcha, hikoya nima uchun bozor tasviri bilan boshlanadi? Asar voqealari rivojida va hikoyaning umumiy g'oyasini ochishda bozor qanday ahamiyat kasb etmoqda?
2. To'riq otning holati tasvirlangan o'rinlar Sarsonboy otaning xarakterini tushunishga qanday yordam beradi?
3. "Qiyomat qarz" so'zini birinchi bo'lib aytgan obraz kim edi? Nega bu so'z ilk bora aynan shu obraz tilidan aytildi?
4. Sarsonboy ota va kaklik ovlashga kelgan yigitlar o'rtasidagi ziddiyat nimaga xizmat qilmoqda?
5. Nima uchun "Qiyomat qarz" hikoyasida muallif retrospektiva usuliga murojaat qilgan? Asar voqealari xronologik tartibda bayon qilinsa, nima o'zgarardi?
6. Umidvorlik hissining yaxshi va yomon tomonlarini qanday izohlagan bo'lardingiz? Fikrlaringizni hikoyadagi obrazlar misolida isbotlashga harakat qiling.

Turkiya darsligida ham hikoya yakunida quyidagi mulohazali savollar berilgan:

1. O'sha kuni Farida muallima uchun nima sababdan eng achchiq va eng dardli kun bo'ldi?
2. O'sha kecha Farida muallima tomonidan "g'arib va qorong'u" xona deb ta'riflangan uy qanday qilib to'satdan "munis va baxtli" xonadonga aylandi?
3. Tug'ilganidan beri o'sha qishloqda yashaydigan va qishloq ahlini taniydigan Munisa yordam so'rash uchun nima sababdan aynan yangi tanigan Farida muallimani tanladi?
4. Farida muallima va Munisani bir-biriga yaqinlashtirgan sabablar nimalardan iborat?
5. Insonlarning boshidan kechirganlarini tushunishda empatiyaning (o'zini o'zganing o'rniga qo'yib ko'rishning) ahamiyati nimada?
6. Atrofingizda yordamga muhtoj bo'lgan insonlar uchun nimalar qila olasiz?

Asar yakunida bu kabi tahliliy savollarning berilishi (har ikkala darslik misolida) matnni anglash darajasini tekshiradi, matn ustida mulohaza yuritishga hamda o'zining shaxsiy munosabatini shakllantirishga undaydi.

Yangi avlod milliy darsligimizda quyidagi topshiriq berilgan: "Qiyomat qarz" hikoyasidagi voqealar orqali Sarsonboy otada milliy xarakterga xos qanday xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin? Bu voqealar orqali muallif nima demoqchi? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Voqea	Bu voqea orqali Sarsonboy otaga xos qanday xususiyatni ko'ramiz?	Muallif nima demoqchi?
Sarsonboy otaning Haydaralini qidirib har hafta bozorga kelishi		
Sarsonboy ota va Madumar aka suhbat		
O'g'lidan qoraxat olishi		
Haydaralining Sarsonboy otaga qo'ylarini tashlab ketishi		
Kaklik ovlashga kelgan yigitlar bilan bo'lgan voqea		

Turkiya darsliklarida quyidagi topshiriqlar keltirilgan:

1. O'qigan matningiz yuzasidan ikkita savol yozing va bu savollarni do'stlaringizga bering.
2. O'qigan matningizdagi hikoya unsurlarini (tarkibiy qismlarini) aniqlang.
3. Konu (Mavzu): Matnda nima haqida gap ketmoqda?
4. Yer (Joy): Voqealar qayerda sodir bo'lyapti?
5. Olay Örgüsü (Voqealar rivoji): Matndagi asosiy voqealar ketma-ketligi.
6. Kişiler (Qahramonlar): Matndagi ishtirokchilar kimlar?
7. Zaman (Vaqt): Voqealar qaysi vaqtda sodir bo'lyapti?
8. Quyidagi ko'rsatmalarni bajaring:
9. O'qigan matningizda uchraydigan o'xshatish (benzetme) gaplarini namunadagidek yozing.

Namuna: Hatice Hanım erkek gibi kalın sesiyle; “Kimdir o?” diye bağırdı.

(Xadicha xonim erkaklardek do'rildoq ovozi bilan: “Kim u?” deb baqirdi.)

10. Siz ham ikkita o'xshatish gapi yozing.

“EBA ta'limiy video platformasi” bo'limidan “Munisa” nomli qisqa filmni tomosha qiling. O'qiganingiz “Munisa” matni bilan tomosha qilgan “Munisa” qisqa filmni ko'rsatmalar asosida qiyoslang.

Qahramonlar:	Matnda: Filmda:
Joy:	Matnda: Filmda:
Vaqt:	Matnda: Filmda:
Voqea:	Matnda: Filmda:

O'qiganingiz “Munisa” nomli matni mavzu yaxlitligini hosil qiladigan tarzda yakunlang (davom ettirib yozing). Darslikda jami 11 ta topshiriq berilgan bo'lib, biz adabiyotga aloqador topshiriqlarni tahlil qildik ^[1].

Hikoya yakunida savol va topshiriqlar ruknida berilgan topshiriqlarning mavjudligi o'quvchida og'zaki nutq, yozma nutq, umumiy g'oyani anglash, asardagi voqealarni xronologik tartibda bayon qilish, syujetni tushunish, obrazlarni tahlil qilish, matni qiyosiy o'rganish, asarning g'oyasini ochish, qahramonlarning holatini tushunish hamda asarning tagma'nolarini anglash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Milliy darsligimizda topshiriqlardan biri loyiha ishi sifatida berilgan:


“Guruhlarga bo'lining. Mahallangizdagi yoshi ulug' bobo yoki buvilar bilan qarz, omonatga xiyonat qilmaslik mavzularida suhbatlashing. Ular aytgan fikrlarni quyidagi jadval asosida daftaringizga yozib oling. Ularning qaysi fikrlari siz uchun kutilmagan bo'ldi? Nima uchun?”

Guruhimiz suhbatlashgan bobo yoki buvining ismi, yoshi	Mavzu haqidagi fikrlar	Nima uchun bunday xulosaga kelgan?

Loyihani bajarish orqali o'quvchida og'zaki nutq va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Topshiriqlar yakunida mustaqil o'qish uchun yozuvchining boshqa hikoyasi QR-kod orqali berilgan. Turkiya darsligida esa loyiha ishi va mustaqil o'qish uchun asar tavsiyasi uchratilmadi.



Savol va topshiriqlarning mazmun diagnostikasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Metodik izchillik jihatidan har ikki davlat darsliklarida topshiriqlar tizimli ravishda tanlangan.

Har ikkala davlat darsliklarida ham kompetensiyaviy yondashuv ustun bo'lib, topshiriqlar o'quvchini darsga tayyorlashdan boshlab, matnni chuqur tahlil qilishgacha bo'lgan tizimli ketma-ketlik asosida berilgan. Darsliklar shunchaki bilim berishga emas, balki hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ikki davlat adabiyot darsliklaridagi topshiriqlar kompetensiyaviy yondashuvning o'xshash tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Berilgan vazifa va topshiriqlar zamonaviy ta'limning asosiy talabi bo'lgan nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 6-aprel, 187-son // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Milliy o'quv dasturi (2023–2024-o'quv yili). – Toshkent, 2023. – 42 b.
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022. – 299 b.
4. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2024. – 320 b.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 145 b.
6. Abduraimov Sh. Ona tili va adabiyot ta'limining dolzarb masalalari // "Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy 6-onlayn konferensiya materiallari. – Andijon: ADU, 2020. – 4 b.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi (yangi nashr), 2022. – 221 b.
8. Akgül A., Demirer N., Gürgen E., Karadaş D., Karahan İ., Uysal A. Türkçe 7. Sınıf Ders Kitabı. – Ankara: Millî Eğitim Bakanlığı Yayınları, 2019. – 264 s.
9. Culler J. Structuralist Poetics: Structuralism, Linguistics, and the Study of Literature. – London: Routledge, 1975. – 324 p.
10. Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978. – 260 p.

11. Kavcar C. Türk Dili ve Edebiyatı Öğretimi // Ankara Üniversitesi Eğitim Bilimleri Fakültesi Dergisi. – Ankara, 2019. – 13 s.
12. Абдулхакимова Г.Т. Особенности передачи художественного образа // Экономика и социум. – 2024. – № 9 (124). – С. 420–426.
13. Абдулхакимова Г.Т. История развития узбекской литературы // Экономика и социум. – 2025. – № 3–1 (130). – С. 542–547.
14. Bekmuhammad U., Sayyora S. Xorazmdagi jadid maktablariga oid ta'lim tashkilotlari va jamiyatlari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2024. – 5(6). – В. 25–31.
15. Xashimova S.N., Abdikarimova A.A. Davlat-xususiy sheriklik mohiyati, ahamiyati va afzalliklari // Science and Education. – 2023. – 4(5). – В. 1450–1453.
16. Xashimova S.N. Sanoat korxonalarida outsorsingdan foydalanish mohiyati va imkoniyatlari // Science and Education. – 2021. – 2(11). – В. 350–354.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.